

BOLALARDA O‘SMIRLIK DAVRIGA XOS TARBIYASI “QIYIN”LIK HOLATLARINING O‘RGANILISHI

Tangiqulova Gulzoda Xonimqulovna

Toshent viloyati Bekobod tumani 44-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘smirlik davriga xos tarbiyasi “qiyin” bo‘lgan bolalarning psixologik xususiyatlari va ularning kelib chiqish sabablari yoritilgan. O‘smirlik davrida yuzaga keladigan emotsional o‘zgarishlar, xulq-atvordagi muammolar hamda ularni o‘rganishning psixologik jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, tarbiyasi qiyin o‘smirlar bilan ishlashda o‘qituvchi, psixolog va ota-onalarning hamkorligi muhimligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik davri, tarbiyasi qiyin bola, xulq-atvor, psixologik xususiyat, agressivlik, emotsional holat, tarbiya, psixologik yordam, ijtimoiy muhit, motivatsiya.

KIRISH

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va mas’uliyatli bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda bolaning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishida keskin o‘zgarishlar yuz beradi. O‘smir o‘zini mustaqil shaxs sifatida his qila boshlaydi, atrofdagilarga nisbatan munosabati o‘zgaradi va o‘z “men”ini anglashga intiladi. Shu sababli bu davrda ayrim bolalarda tarbiyasi “qiyin”lik holatlari kuzatilishi mumkin.

Tarbiyasi qiyin o‘smirlar odatda kattalarning talablariga qarshilik ko‘rsatadi, darslarga qiziqishi pasayadi, agressiv yoki tortinchoq xulq namoyon qiladi. Ayrim hollarda ular tengdoshlari bilan nizolashadi, intizom buzadi yoki salbiy guruhlarning ta’siriga tushib qoladi. Bunday holatlar bolaning ruhiy rivojlanishiga va jamiyatga moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘smirlik davrida yuzaga keladigan qiyin tarbiyaviy holatlarning asosiy sabablaridan biri oilaviy muhit bilan bog‘liqdir. Oiladagi doimiy nizolar, ota-onaning farzandga e’tiborsizligi yoki haddan tashqari qattiqqo‘lligi bolaning ruhiyatiga salbiy ta’sir qiladi. Mehr va e’tibor yetishmasligi natijasida o‘smirda agressivlik, ishonchsizlik yoki tushkunlik holatlari paydo bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy muhit ham o‘smir xulq-atvoriga katta ta’sir ko‘rsatadi. Tengdoshlar bilan munosabat, internet va ommaviy axborot vositalaridagi turli salbiy ta’sirlar ayrim o‘smirlarning noto‘g‘ri yo‘l tutishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, o‘ziga bo‘lgan ishonchi past bo‘lgan o‘smirlar boshqalarning ta’siriga tez beriladi.

Tarbiyasi qiyin o‘smirlarni o‘rganishda psixologik kuzatuv, suhbat, test va diagnostik metodlardan foydalaniladi. Maktab psixologi bolaning emotsional holati, qiziqishi va xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni tahlil qiladi. Bu esa muammoning sabablarini aniqlash va unga mos yondashuvni tanlash imkonini beradi.

Bunday o‘smirlar bilan ishlashda individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi va psixolog o‘smirni doimiy tanqid qilish o‘rniga, uni tushunishga va qo‘llab-quvvatlashga harakat qilishi kerak. Rag‘batlantirish, ishonch bildirish va samimiy muloqot bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Psixologik treninglar, motivatsion suhbatlar va turli tarbiyaviy tadbirlar ham tarbiyasi qiyin o‘smirlar bilan ishlashda samarali vosita hisoblanadi. Sport, san‘at va ijodiy mashg‘ulotlarga jalb qilish orqali o‘smirlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish mumkin. Bu esa salbiy xulq-atvorning oldini olishga yordam beradi.

Ota-onalar bilan hamkorlik qilish ham muhim vazifalardan biridir. Ota-onalar farzandini tinglashi, uning qiziqishlariga e‘tibor berishi va unga ruhiy dalda ko‘rsatishi kerak. Oilada sog‘lom psixologik muhit yaratilsa, o‘smirning xulq-atvorida ijobiy o‘zgarishlar yuz beradi.

Ma‘lumki, inson ijtimoiy munosabatlar qurshovida yashaydi. Ijtimoiy munosabatlar va jarayonlarning shaxsga ta‘siri masalasi ijobiy yoki salbiy ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Individga ijtimoiy jarayonlarning ijobiy yoki salbiy ta‘sir etishi birinchidan, shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan ijtimoiy muhit voqea-hodisalari xususiyatlari va shart-sharoitlari mazmuniga ko‘ra namoyon bo‘ladi. Ya‘ni ijtimoiy muhitning sog‘lom yoki nosog‘lomligi va uning ta‘sirchanlik darajasiga ko‘ra individga u yoki bu ko‘rinishda ta‘sir etadi va u yoki bu ko‘rinishdagi xulqiy og‘ishlarni kelib chiqishi uchun qandaydir ma‘noda imkoniyat yaratadi.

O‘smirlardagi tarbiyasi “qiyin”lik ijtimoiy-ijobiy xulqdan nafaqat yo‘nalganlik mohiyati yana psixik boshqaruv xususiyatlariga ko‘ra ham farqlanadi:

shaxsning xulqi uning ehtiyojlari jabhasi, anglangan va anglanmagan e‘tiqodlari tizimi, maqsadni qo‘yish, unga erishish xususiyatlari bilan tavsiflanadi;

o‘smirdagi boshqaruv imkoniyatlarining pastligi asotsial hamda antisotsial ustanovkalar va odatlarni faqat nazorat qila olmaslik emas, balki xulqning maqsadga aylanish mexanizmini tashkil etadi;

v) xulqiy og‘ishlar asosida o‘smirning o‘z ijtimoiy mas‘uliyatini o‘z o‘zini oqlashga qaratilgan himoya mexanizmi yordamida umumqabul qilingan me‘yorlarning qadrsizlanishi yotadi.

O‘smirlardagi tarbiyasi “qiyin”lik xulq ko‘rinishlari-nizoli xulq bo‘lib, u o‘smir va uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit o‘rtasidagi munosabatlarning nomuvofiqligi, o‘zining jamiyatdagi tutgan o‘rnidan qoniqmaslik, jamiyat qoidalari bilan kelisha

olmaslikka asoslanadi. O`smirlardagi xulqiy og`ishlar faqatgina unga bevosita ta`sir etuvchi omillarning natijasi emas, o`smirning xulq-atvori tashqi sharoitlar tizimining unda shakllangan ichki holatlar bilan nomuvofiqligidir.

Bunga qadriyatlar tizimi, maqsad qo`yish va maqsadga erishish xususiyatlari, o`z-o`zini boshqarishdagi psixodinamik xususiyatlar, xulq usullarini umumlashtirish kabilar kiradi. Xulqning umumlashgan usullari individning xarakterologik xususiyatlarini tashkil etib, u atrof-muhit ta`siri ostida shakllanadi. Psixodinamik xususiyatlar esa biologik omil-genotipning hosilasidir. Qayd etilgan barcha omillar xulqning psixik boshqariluvchi deyiladi. Umuman olganda, o`z xulq-atvori uchun shaxsning alohida tuzilmaviy komponentlari emas, balki shaxs o`zi javobgardir. Shaxs har qanday vaziyatli sharoitlarda yaxlit, barqaror va o`zgarmas (konstant)dir. Bu uning mazkur vaziyatga anglab yoki anglamay ko`rsatgan reaksiyasiga bog`liq.

Shunday qilib, xulq – inson xatti-harakati, atrof-muhit bilan o`zaro aloqasi jarayoni, uning tashqi (xatti-harakat) va ichki (psixik) shartlangan faoliyatining tashqi ifodalanishidir. Xulqda jamiyat tomonidan qabul qilingan urf-odatlar, axloqiy, ma`naviy va huquqiy me`yorlar o`z ifodasini topadi. Ushbu me`yorlar o`smir ongiga avvalo oila orqali anglanadi. O`smirning shaxslilik xususiyatlari uning xulqiga ko`ra belgilanadi. O`smirlardagi xulqiy og`ishlarda o`smir xulqi oiladagi xulq huquq me`yorlari bilan nizoga kirishadi. Harakatlarning umumlashmasi muayyan faoliyat turini tashkil etadi. Harakatlarning asosida maqsad paydo bo`lishi bilan subyektning motiviga aylanuvchi qiziqishlar va turli ehtiyojlar ko`rinishidagi istak yotadi. Shunga ko`ra, motivlarda individning istaklari ifodalanadi. Alohida harakatlarning tarkibiy qismlarga ajralishini S.Rubinshteyn “xususiy harakatlar”-deb ataydi. Motivlarning shakllanishida maqsad qo`yishlikning psixologik mexanizmlari katta ahamiyatga ega. Harakat maqsadi motivlar bilan o`zaro solishtirilganda, uning o`z predmetiga egaligi yaqqol ko`zga tashlanishi tufayli farqlanadi. Shaxsning ehtiyojlari, intilishlari, qiziqishlari va motivlari uning faoliyati maqsadlari bir-biriga bog`liqligi bilan uyg`unlashadi. Amaliyotda “motivsiz” yoki anglanmagan jinoiy xatti-harakat aktlari ham uchrab turadi. Bu vaziyatni shartli tarzda ikki guruh doirasida talqin qilish mumkin:

O`zini psixik jihatdan “nosog`lom” tutishga uringan subyektning o`z xatti-harakatlariga yuzaki qarashi, uning oqibatlari haqida chuqur o`ylamasligi, ba`zan esa psixik og`ish mavjudligi sabab bo`ladi. Ushbu holatda bir qarashda «motivsiz» xatti-harakatdan haqiqiy jinoiy xulq-atvor motivini ajratish maqsadga muvofiq. Bu hodisa esa uzoq muddatni talab qiladi. Tazyiq xususiyatiga ega bo`lib, subyekt xatti-harakatlarining «qorishma» mexanizmi deb atash mumkin. Bu vaziyatda subyekt frustratsiya holatidagi agressiya, autoagressiv va hattoki, suitsidal holatda bo`ladi. Goho ehtiyotsizlik oqibatida sodir etiladigan jinoiy xulq ham amaliyotda uchrab turadi.

Masalan, mas`uliyatsizlik, biror ishning natijasini ko`ra bilmaslik, intellektual salohiyat ko`rsatkichi yuksak holatlarda o`ziga ortiqcha baho berish, o`zini-o`zi nazorat qilishning susayishi shular jumlasidandir.

O`smirlar o`rtasida tarbiyasi “qiyin”lik holatining kelib chiqishi quyidagi omillarga bog`liq:

Ijtimoiy omillar - erkinlik hamda ijtimoiy tartib qoidalardan qochish, qulay sharoit qidirish, hissiy xotirjamlik; o`z “Men”iga past nazar bilan qarash, boshqalarga tobelik; moddiy kam ta`minlanganlikni his qilish, ota-onaning xulq-atvoridan uyalish; ijtimoiy tartib qoidalarini buzish, huquqbuzarlik, bezorilik, mayda o`g`rilik, fohishalik; giyohvand moddalarni iste`mol qilish, ota-onalarning ishsizligi; o`smir hayotida ijtimoiy-iqtisodiy tomondan qiyin vaziyatlariga tushishi kabilar.

Oilaviy omillar - ota-ona, o`qituvchi, kattalar va o`smirlar o`rtasidagi muloqotdagi muammolar; o`smirlarga kattalar tomonidan diqqat-e`tiborning yetishmasligi; ota-onalar bilan farzandlar o`rtasida o`zaro tushunishning yo`qligi va ikki tomonlama intilishning yetishmasligi; ota-onalarning o`g`il va qiz o`smirlarga nisbatan qo`pol muomalada bo`lishlari, ko`r-ko`rona otalik va onalik mehr-muhabbatining hukm surishi; oila davrasida, muhitida doimiy janjallarni qaror topganligi va ularni bartaraf etishga intilish yo`qligi; ota-onalarning beqaror his-tuyg`ulari, kayfiyatlari, ularning tartibsiz, tasodifiy xarakterga ega bo`lishi; farzand ota-onalarning shaxsiy qiziqishlarini o`zaro mos tushmasligi va tubdan qarama-qarshi ekanligi; farzandlar nazarida ota-onalarning salbiy xulq-atvori, ularning ichish va chekishlari, giyohvandligi va intim qiliqlari; ota-onalarning muntazam ravishda o`zaro janjallari; noto`liq oilalar; o`smirlarning qobiliyatini kattalar tomonidan salbiy baholanishi; ota-onalarini ma`naviy ahloqsizligi kabilar.

Shaxsiy omillar - o`rtoqlar, sinfdoshlari, boshqa tengdoshlari bilan o`zaro aloqa; o`z-o`zini tushunmaslik va o`ziga salbiy munosabat; hayotiy yo`nalishlardagi orzu va havaslar; ichki ruhiy yolg`izlik, o`zgalarning o`smirlarni tushunmasligi; baxtsizlikdan qiynalish, shaxsiy qiyinchiliklar; shaxsiy muvaffaqiyatsizlik, muammolardan xavotirga tushish, irodasizlik; o`qishdagi qiyinchilik, og`ir vaziyatlarga uchrash; hissiy xavfsizlik - “himoya qiluvchi”ni qidirish; spirtli ichimlik ichish va jamoat joyida chekish; taksikomaniya; maktab qoidalarini buzish, dars qoldirish, uyga berilgan vazifani bajarmaslik; o`zgalarga tobe bo`lmaslik; o`ziga ishonchning etarli emasligi; irodaviy-xissiy jihatdan zaifligi; yolg`izlik, o`zgalarni tushunmaslik; ijtimoiy xulq-atvor ko`nikmasining kamligi; bo`sh vaqtni to`g`ri tashkil qilinmaganligi; o`zga e`tiborni xohlashi kabilar.

Fiziologik omillar - nerv sistemasidagi kasalliklari (oligofreniya, shizofreniya, psixik rivojlanishning sustligi, autizm...)

O`smirlik davriga xos og`ishlarning xilma-xilligi uni klassifikatsiya qilish masalasi dolzarbligidan dalolat beradi. Qator xorijlik olimlarning izlanishlarida (K.Leongard, P.Ganushkin, A.Lichko, N.Ivanov va boshqalar) xarakterdagi aktsentuatsiyaning tasnifi berilgan. Unga ko`ra quyidagi tiplar farqlanadi:

sikloid tipli o`smirlardagi xulq-atvor kuzatilganda, birinchi navbatda ulardagi kayfiyatning beqarorligi ko`zga tashlanadi. Chunki, siklotemik buzilishlar birinchi navbatda oiladagi, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi buzilishlar, ularning asoratlari shaxsning kayfiyatini buzadi, unda depressiya holatini keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham bu holat boshqalardan farqli uzoq muddatga cho`ziladigan, uzoq muddat davomida namoyon bo`ladigan psixologik buzilishlar sirasiga kiradi, sikloid o`smirning xarakteri bugun yoki kecha emas, voqea sodir bo`lganidan anchagina avval ro`y bergan voqea-hodisalar, oiladagi surunkali janjallarning ta`sirida shakllangan bo`ladi. Tergov paytida bu toifa o`smirlar bilan ishlash ham o`ta mushkul, chunki umumiy depressiya holati ta`sirida ulardan aniq, lo`nda va ravon javob olish mushkul bo`ladi.

gipertim tip - doimiy ko`tarinkilik, faollik, biror ish orqali o`zini ko`rsatishga intiqlik bilan o`zini ko`rsatishga intilish bo`lib, ko`pincha tezda paydo bo`lgan ko`tarinkiliklar ishni oxirigacha yetkazmay, tashlab ketishlargacha olib boradi. Gipertim tipli o`smir – bu odatda haddan tashqari hissiyotga beriluvchanlik, ko`zg`aluvchanlikning ochiq namoyon bo`lishini bildiradi. Bunday gumon qilinuvchiga ham sal ortiqcha gapirilsa, nafsoniyatiga tegilsa, birdan yig`lab yuborishi yoki aksincha, qattiq xoxolab kulishi, yig`lab turib kulishi holatlari kuzatilgan. Ya`ni, bunday o`smirlarda so`roq paytida og`zaki javob tarzidagi so`zlardan ko`ra ko`proq emotsiyalar, hissiyotlarni kuzatish mumkin.

labil tip – vaziyatga ko`ra kayfiyatning birdan va tez o`zgarishini namoyon qiluvchi xarakter ko`rinishi. Bunday o`smirlar bilan bir tomondan ishlash oson bo`lsa, boshqa tomondan ayni bu beqarorlik noto`g`ri xulosalar chiqarishga olib kelishi mumkin.

astenik tip – tezdagina charchab qolish, toliqish, jizzakilik, depressiyalarga moyillikni bildirsa, unga yaqin yana bir tip - psixastenik tipning asl ma`nosi nimagadir bog`lik tarzda shaxsning o`zgarishidir. Astenik tip ham yomon shaxslararo munosabatlar ta`sirida shakllangan xislatlarni bildirib, bunday o`smirlarda hamisha tushkunlikda bo`lish, passivlik, faollikning ko`rinmasligi, tezda charchab qolish va tashabbuskorlikning, umuman hayotga nisbatan teran qiziqishning yo`qligi bilan xarakterlanadi. Krechmer tavsifiga ko`ra, bunday odamlar ozg`indan kelgan, elkalari tor bo`lib, ularning semirishi qiyin va ba`zan ularda shizofreniyaga moyillik ham kuzatiladi. Umuman, psixologik lug`atlarga ko`ra, asteniya – bu «kuchsizlik, nochorlik holati»dir. Shaxs va uning hissiyotlari o`rganilganda, asteniya – umumiy kuchsizlik,

depressiya va tushkunlikka tushishni anglatadi. Yana bir guruh o`smirlarga xos bo`lgan sifat – shaxsning o`zgalarga bog`liq holda o`zgarishi xususiyati uchraydi. Bunday o`smirda faollik elementlari deyarli ko`rinmaydi, u hamisha o`zgalarning uning uchun qaror chiqarishi, uning taqdirini hal qilishlariga yo`l qo`yib beradi va shunga ko`nikib ketadi ham. Ya`ni, bunday shaxslarning o`zlariga ishonchi yo`q, ko`p narsalardan shubha qilishadi, ayniqsa, ko`p narsalar uning qo`lidan kelmaydiganday, qobiliyatsizday tuyulaveradi. Shuning uchun o`zidan sal dadilroq tengdoshlarni ko`rganda, ularga ko`r-ko`rona ergashadi va jinoyatchilar to`dasiga qo`shilib ketishi mumkin.

senzitiv tip – ta`sirchanlik, qo`rqqoqlik, o`zi xaqidagi fikrlarning yomonligidan dalolat beradi. Bunday o`smirlar taassurotlarga beriluvchan, salga hayajonlanib ketadigan bo`ladi.

shizoid tip – odamovilik, yovvoyilik, introversiyani bildirib, bundaylar muloqotga kirishib ketishi mushkul, ko`p narsaga sovuqqonlik bilan qaraydi, o`zgalarga hamdardlik bildirishi ham qiyin. Jinoyatchilar orasida bundaylar ko`proq uchrashi mumkin, chunki ularga normalar doirasida, jamiyatda yashash qiyinday tuyuladi, o`zining kichik guruhi va ichki dunyosi bo`lsa bas.

epileptik - tipga kiruvchilarda ham ruhiy, ham somatik buzilishlar kuzatiladi. Bu psixikaning ochiq buzilishi bo`lib, ko`pincha tug`ma xususiyatlarga bog`lik, chunki epileptik buzilishlarga asosan bosh miya faoliyatining ishdan chiqishi sabab bo`ladi. Bunday o`smirlar tergov paytida o`ziga yoqmaydigan savollar yoki so`rovchining qo`pol munosabatidan g`azablanib ketganda hushidan ketib qolishi ham mumkin. Bunday o`smirlarni bizning tilda «tutqanoq kasal»i borlar deb atashadi. Bu toifa o`smirlar bilan ishlaganda, nihoyatda ehtiyot bo`lish, kerak bo`lsa uni vrach nazoratidan o`tkazish darkor. Amaliyotda xulqda «epileptik ekvivalent» holati ham kuzatiladi, bunda o`smirning sensor yoki harakatlarida tutqanoqday simptomlar kuzatilishi mumkin, bu ham aslida epileptik tipga moyil shaxsning xulqi ko`rinishidir.

jizzaki – ancha urushqoq va agressiv tip. Uning asab tomirlari tarang, salga o`zini yo`qotib, quyushqondan chiqib ketishi mumkin.

namoyishkorona (isterioid tip) tip – o`zini ko`rsatish uchun hech narsadan toymaydi, kerak bo`lsa, o`zini ko`rsatish va fikrini ta`kidlash uchun yolg`on ham gapiraveradi, turli ziddiyatlarni keltirib chiqarishni xush ko`radi, yolg`on fantaziyalarga ba`zan juda berilib ketadi, yaxshigina bahonachi, kerak bo`lsa o`zini kasallikka solib, muammolardan qochishga intiladi.

distim tip – ko`pincha o`zida kayfiyati buzuqlikni namoyon etadi, shuning uchun doimo tushkunlikda yuraverganidan depressiyalarga chalinib turadi, hamisha yomon narsalarni va yomon oqibatlarni o`ylaydi.

beqaror tip – bu o`ziga, o`zgalarga, yurish-turishi va xulq-atvoriga nisbatan olinganda beqarorlikka moyillikni namoyon etuvchi shaxs. Uning kayfiyati ham shunga mos tarzda tez-tez o`zgaradi, odatlar, ko`nikmalar va bir narsaga ixlos qo`yish ham shu kabi. Biz o`rgangan o`smirlarning ko`pchiligida ayni shu sifat borligi ma`lum bo`ldi, ular hattoki, ko`cha-kuydagi tanishlarini ham, kiyinish rusumi va odatlarini ham o`zgartirib turishga moyildir.

konform tip – o`zgalarga tobelik va o`zgalalar fikriga bog`liqlikni bildiradi. Bular ko`proq konservativ tipli bo`lib, qotib qolgan normalar doirasida yashash, o`zgalalar ko`rsatmasi asosida yashashni xush ko`radi. Tashabbuskorlik kam namoyon bo`ladi.

Albatta, yuqorida ta`kidlangan tiplar «sof» tarzda hayotda uchrashi qiyin, lekin bir-biriga o`xshash tiplar bir insonda mujassam bo`lishi mumkin.

Psixolog olim V.Klaynning o`smirlardagi salbiy og`ishlar to`g`risida fikr yuritir ekan, ularni quyidagi turlarga ajratadi:

“Esi past”. O`smirlarning xulq-atvorida sho`xlik, yoqimsiz xatti-harakatlar etakchilik qiladi. Uyga kech kelish, aldash, ta`lim muassasasidagi har xil nizoli vaziyatni kelib chiqishiga sababchi bo`lishlari, kinoga biletsiz kirishlar, doim janjallashish, atrofdagilarni ko`nglini qoldirish, narkotikni tatib ko`rishga moyil bo`lishlari kuzatiladi.

“Ota-onaning dushmani”. Bu toifadagi o`smirlar o`z xatti-harakatlari bilan ota-onalarini qiyin holatda qoldiradilar, ularga norozilik hissini ochiq oydin bildiradilar. Ular ota-onasini munosabatini tushunmaydilar. Bu davrda salbiy hislari ortib boradi.

“Axloqsiz o`smir”. Bunday o`smirlar asotsial yo`nalishga ega. Ularning hissiy va intellektual taraqqiyotida o`zgarishlar yo`q, xulq-atvorida ham yaqqol o`zgarish kuzatilmaydi. Ularda qonunbuzarlar bilan aloqada bo`lishga moyillik bor. Bu holat o`smirga nisbatan oiladagi e`tiborsizlik yoki nomaqbul oilada tarbiya topganligi zamirida vujudga kelishi mumkin.

“Organik”. Bu toifadagi o`smirlarda miyaning lat yeyishi yoki aqliy taraqqiyotida ortda qolish yuzaga keladi. Bu esa tartib-intizomni hamda xulq-atvorning buzilishiga olib keladi. Bunda o`smirlar ko`pincha o`z tengdoshlari bilan janjallashadilar.

“Psixotiklar”. Aqliy etilmagan, kasalmand o`smirlar bo`lib, ularda gallyutsinatsiya, jinoiy harakatlardan xursand bo`lish, buzg`unchi fikrlar hukmronlik qiladi.

“Nasliy buzuqlik”. Bu toifadagilar birlamchi psixopatlar hisoblanadilar. Ular uchun jinoiy xatti-harakat qilish odatiy holga aylanadi. Nasliy buzuqlarda xatti-harakatlar ilk yoshdayoq namoyon bo`ladi. Ularda mas`uliyat hissi yo`q va ishonib bo`lmaydi. Ularni tuzatish va yordam ko`rsatish ancha mushkuldir.

O`smirlarda tarbiyasi “qiyin”lik holatini kelib chiqishining obyektiv shart-sharoitlari jamiyatdagi xatoliklar, boshqaruv tizimidagi kamchiliklar, qonun va qoidalarning talabga javob bermasligi va boshqalardan iboratdir.

O`smir xulq-atvoridagi buzilish ijtimoiy muhitning o`ziga xos jihatlari, ya`ni sog`lom va nosog`lomligiga, individning fe`l-atvori, xarakter xususiyatlari, ijtimoiy me`yorlar va shaxslararo munosabatlar, ular o`rtasidagi ziddiyatlar hamda ularning zo`rayib borishi kabilarga bog`liq bo`ladi. O`smirning dunyoqarashi, ijtimoiylashuvi va individual hissiyotlarining ijobiy tarzda shakllanishi va namoyon bo`lishi uni jamiyat va insoniyat uchun foydali bo`lgan xatti-harakatlarga undaydi.

Shuni unutmaslik kerakki, tashqi muhit yoki ijtimoiy voqea-hodisalar har doim ham tarbiyasi “qiyin”lik holatini kelib chiqishi uchun asos bo`lib xizmat qilmaydi. Qachonki, ijtimoiy voqea-hodisalar va individ o`rtasida qarama-qarshilik va ziddiyatlar yuzaga kelsa, jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy normalar individ tomonidan qabul qilinmasa hamda ijtimoiy muhitda xulq og`ishining kelib chiqishi uchun etarli shart-sharait mavjud bo`lgan holatlarda kelib chiqishi mumkin.

Muayyan turmush tarzi va o`ziga xos tarbiya muhitida kamol topgan o`smir turli hayotiy vaziyatlarda ijtimoiy muhit shart-sharoitlariga ko`ra ma`lum ziddiyatlarga duch keladi va uni yengib o`tishga harakat qiladi. Lekin o`zi kutgan natijaga erisha olmaydi. Bunda frustratsiya holati yuzaga keladi va natijada xulqiy og`ishlar namoyon bo`ladi.

O`smirlarda tarbiyasi “qiyin”lik holatini kelib chiqishiga asos bo`luvchi omillarni o`rganar ekanmiz, birinchi navbatda uning ma`naviy jihatdan qashshoqligi masalasiga alohida to`xtalib o`tish lozim bo`ladi. O`smirning ma`naviy qashshoqligi ijtimoiy muhit bilan o`rtasidagi murakkab vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo`ladi. Ma`naviy jihatdan barkamol bo`lgan shaxs ijtimoiy muhit voqea-hodisalariga nisbatan ijobiy munosabatini namoyon qiladi.

O`smirning ijtimoiy va psixologik fazilatlari ijtimoiy munosabatlar doirasida shakllanadi. Individ ijtimoiy muhit bilan aloqaga kirishi jarayonida xulq-atvor normalarining ma`naviy, ijtimoiy va madaniy tushuncha va tasavvurlarni, yangi-yangi qiziqish va ehtiyojlarni egallab boradi. Shuning bilan bir qatorda shaxs ijtimoiy muhit munosabatlari va insoniy taqdirning passiv kuzatuvchisi bo`lmasdan, o`z turmush tarzini, shart-sharoiti va shaxsiy hayotini o`zi belgilaydi va quradi. Demak, shaxs shakllanishida insonning o`z qiziqishlari, intilishlari, maqsadlari muhim o`rin tutadi. Bunday fazilatlarga ega bo`lgan shaxs turli xil hayotiy voqea-hodisalar qurshovidan osonlik bilan chiqa oladi. Shuning uchun shaxsda ijtimoiy fazilatlar, mustahkam va qat`iy hayotiy pozitsiya, maqsad va intilishlarni shakllantirish o`smirlar o`rtasida tarbiyasi “qiyin”lik holatini oldini olishda muhim ekanligini unutmaslik kerak.

Ko`pgina tadqiqotchilarning ta`kidlashlaricha, o`smirlarda xulq og`ishining kelib chiqishiga ulardagi asabiylik, aqliy taraqqiyot darajasiga ko`ra sust rivojlanganligi va shaxsning boshqa psixologik xususiyatlari ham sabab bo`ladi.

O`smirlarning zararli odatlarga berilishlari, xususan spirtli ichimlikka ruju qo`yishlari, giyohvandlik va tamaki mahsulotlarini chekishlari holati ham ularda xulq og`ishining kelib chiqishiga sabab bo`ladi.

Alkogol va giyohvand moddalar psixotaksik xususiyatga ko`ra, narkotik ta`sir ko`rsatuvchi va sarxush qiluvchilik xususiyatiga ega bo`lgan moddalar hisoblanadi. U inson bosh miyasiga narkotik ta`sir ko`rsatib, butun organ va nerv sistemalari faoliyatini va shaxsning o`z-o`zini anglash darajasini susaytiradi. Sarxushlik holati kishida andishasizlik, odocsizlik, qo`pollik va yengil-yelpi fikr yurituvchanlikni keltirib chiqaradi hamda tafakkur, diqqat, xotira jarayonlarini susaytirib, instinktiv xulq-atvor sifatlarining yorqin ifodalanishiga olib keladi. Natijada inson sarxushlikda o`z xatti-harakatlarini idora qila olmay qolishi natijasida muammoli vaziyatlarda tafakkur xususiyatlarining susayganligi tufayli to`g`ri qaror qabul qilishga qiynaladi va oqibatda nizoli vaziyatlarda noto`g`ri qaror qabul qilish natijasida g`ayriqonuniy xatti-harakatlar sodir etiladi.

O`smirlar shaxsida salbiy illatlarning mavjudligi, ularning ma`naviy dunyosi ko`lami torligi, kitob, gazeta jurnallar o`qimasliklari, shuningdek shaxsning ma`naviy ongini oshiradigan mashg`ulotlar bilan shug`ullanmasliklari tarbiyasi “qiyin”likni kelib chiqishiga o`z ta`sirini o`tkazadi.

Psixologik tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, tarbiyasi qiyin o`smirlarda texnikaga, sportga va turli xil ijodiy ishlarga nisbatan bo`lgan qiziqish boshqa tengqurlariga nisbatan ancha pastdir. Jinoyatchilik xulqiga ega o`smirlar bilan boshqa tengqurlari o`rtasida bu sohalarga nisbatan bo`lgan qiziqishlar quyidagilar bilan farqlanadi:

madaniy, ma`rifiy va ma`naviy sohalardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligida;

kinoteatr va turli xil madaniy dam olish dasturlarida ishtirok etish orqali bo`sh vaqtlarni mazmunli o`tkazish bo`yicha farqlilikda;

o`z yo`nalishi bo`yicha kanallardan olingan axborotlarga o`chlik va shular asosida kunni o`tkazishlikda;

ta`lim-tarbiya, madaniy va ma`rifiy sohalarga nisbatan bo`lgan qarashlarida; qiziqishlarning kamligi va ijtimoiy sust hayot tarzini xush ko`rishlikda;

bo`sh vaqtlaridan unumli foydalanish o`rniga ko`chada bekorchilikdan birovlarining jig`iga tegish, ichish, chekish, azart o`yinlar bilan shug`ullanishda; oila a`zolari haqida o`ylash hissining yo`qligida;

o`qituvchilar, o`smirlar, ota-onalar va boshqalar bilan bo`lgan aloqaning, muomala munosabatning yaxshi emasligida va shu kabilar bilan farqlanishida kuzatiladi.

P.Ganushkin, O.Kerbikovlarning ta`kidlashlaricha, “shaxs xarakteridagi aktsentuatsiya muayyan vaqt oralig`ida barqaror, barcha vaziyatlarda deyarli bir xil namoyon bo`lishi va shaxsni ijtimoiy muhit normalariga bo`ysunishini qiyinlashtiruvchi simptomlarga egadir”. Shunisi o`ziga xoski, o`sha sifatlar ayni bir xil vaziyatlarda, ayniqsa, muloqot vaziyatida ochiq ravshan namoyon bo`ladi va shaxsni o`sha vaziyatda tanilishiga imkon beradi. Masalan, uy sharoitida bir xil xarakter sifatlarini namoyon etgan o`smir ko`cha o`smirlariga qo`shilgan zahoti boshqa sifatlarini yaqqolroq namoyon etadi. Shuning uchun ayrim paytlarda ota-onasi o`smirning uyda kamgap, ko`chada sergap ekanligiga ishonmaydi. Ya`ni o`smirlik davrida turli vaziyatlarda u yoki bu sifatlar aktsentuatsiyasi bo`lishi mumkin. Shundan kelib chiqib, olimlar xarakterdagi aktsentuatsiyaning ochiq va yashirin turlarini bir-biridan farqlaydilar. Xonadonda ota-onalar bilan muloqotda yashirin bo`lgan ayrim sifatlar, masalan, urushqoqlik ochiq ko`rinishga o`tishi yoki muayyan vaqt mobaynida xarakteridagi biror sifat yashirinib turishi, keyin vaziyat talab qilganda esa birdaniga namoyon bo`lishi ham mumkin. Shuning uchun ham ayrim o`smirlar bilan muayyan vaqt o`tgach, o`sha aktsentuatsiya tipi yana yuzaga chiqishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o`smirlik davriga xos tarbiyasi “qiyin”lik holatlari murakkab psixologik va ijtimoiy omillar ta`sirida yuzaga keladi. Bunday holatlarni o`z vaqtida aniqlash va ularga to`g`ri psixologik yondashuvni qo`llash muhim ahamiyatga ega. O`qituvchi, psixolog va ota-onalarning hamkorligi asosida olib borilgan tarbiyaviy ishlar o`smirlarning sog`lom shaxs bo`lib shakllanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI :

1. G`oziev E. G. Yosh davrlari psixologiyasi. — Toshkent: O`qituvchi, 2017.
2. Davletshin M. G. Pedagogik psixologiya. — Toshkent, 2018.
3. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: Sharq, 2020.
4. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi. — Toshkent, 2019.
5. Vygotskiy L. S. Psixologik rivojlanish asoslari. — Moskva, 2016.